

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025  
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>Р.З.Хайров</b> Интеграция Adobe Photoshop и платформ Google Arts & Culture в образовательный процесс будущих педагогов изобразительного искусства .....	106
<b>X.A.Madaminov</b> Turli yosh toifasidagi yunon-rum kurashchilarini morfofunktsional ko'rsatkichlarini o'rganish tahlili .....	114
<b>S.T.Xakimov, M.N.Murodova</b> 10–12 yoshli qizlar orasida chim ustida xokkey bo'yicha jismoniy chidamlilikni oshirish metodikasi.....	120
<b>A.N.Qosimov</b> Sport vositasida milliy identiklikni shakllantirish: ijtimoiy-pedagogik asoslar va zamonaviy yondashuvlar.....	125
<b>S.T.Xakimov, K.M.Uktamova</b> Gimnastika darslari misolida nodavlat ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion metodlarni tatbiq qilish .....	130
<b>B.B.Xaitbayeva</b> Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish .....	134
<b>Z.N.Usmonov</b> Ixtiyoriy harakatlar va ularning fiziologik mexanizmi .....	140
<b>A.I.Tuychiyev</b> Maktab yoshidagi o'quvchilar organizmida funktsional faollikni ta'minlovchi asosiy omillar.....	145
<b>Sh.D.Ismoilov</b> Jismoniy harakatlarning mazmuni va strukturasi nazarini asoslari .....	151
<b>T.T. Yusupov</b> Inson jismoniy rivojlanganligi va tayyorgarligining o'lchamlari tahlili .....	156
<b>M.G'.Zaylobidinova</b> Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning hayotiy ko'nikmalarini oshirish kasbiy muvaffaqiyat asosidir.....	162
<b>M.X.Komilova</b> G'arb ilmiy tadqiqotlarida onomastikasining pedagogik ahamiyati .....	168
<b>N.R. Mansurova</b> Milliy musiqiy merosni asrab-avaylashning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari.....	172
<b>A.K.Yusupova N.A.Aliyev</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z-o'zini rivojlantirish kompetentligini rivojlanishning ba'zi masalalari .....	180
<b>G.Sh. Latipova</b> Malaka oshirish tizimi tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning metodologik asoslari .....	184
<b>N.O. Xaydarova</b> Tibbiyot OTMlari o'quv jarayonida bo'lajak shifokorlarning refleksiv madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	191
<b>M.M.Боркошев</b> Влияние тренерского стиля на социализацию юных спортсменов в командных видах спорта.....	195
<b>S.S.Ubaydullayev</b> Talabalarni ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	199
<b>Z.N.Ortiqova</b> Kichik yoshdagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va ularning assotsiativ fikrlashga ta'siri .....	203
<b>M.M.Умаралиева</b> Развитие самостоятельного обучения в высшем образовании с помощью интерактивных мультимедийных инструментов .....	207
<b>Z.N.Ortiqova, Sh.M.Yigitaliyeva</b> Boshlang'ich sinflarda umumlashtiruvchi dars tushunchasi va uning maqsadlari .....	211
<b>H.A.Saipova, X.I.Obidova</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetentligini rivojlantirishda hikoyaning o'rni.....	215



UO'K: 371.13:37.018.1+373.3

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH  
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANISHNING BA'ZI MASALALARI****НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ САМОРАЗВИТИЯ БУДУЩЕГО  
УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ****SOME ISSUES OF DEVELOPING THE SELF-DEVELOPMENT COMPETENCE OF A FUTURE  
PRIMARY SCHOOL TEACHER**Yusupova Anora Karimovna<sup>1</sup> <sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti professoriAliyev Nurillo .Abdikayumovich<sup>2</sup> <sup>2</sup>Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti assistenti**Annotatsiya**

Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z-o'zini rivojlantirish kompetentligini rivojlantirishga doir ayrim masalalar, jumladan, ushbu kompetentlikning tarkibiy qismlarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari o'rganilgan. O'qitish samaradorligini oshirishda eng muhim omillardan biri – o'quvchilarning bilishga oid o'z-o'zini rivojlantirish kompetentligini faollashtirishdir. Ushbu kompetentlik elementlarini shakllantirish jarayonida ta'limning muhim jihatlardan biri hisoblangan o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan sababli yondashuvi shakllanadi. O'quvchilarning ta'lim olish sabablari bilan bog'liq o'quv faoliyatini kuchaytirish va uni izchil olib borish – ta'lim samaradorligini oshiruvchi asosiy usullardan biridir. Matematik qobiliyatlarni rivojlantirish masalasini o'z-o'zini rivojlantirish kompetentligidan ajratib ko'rib chiqish mumkin emasligi muqarrardir. O'z-o'zini rivojlantirish kompetentligining rivojlanishi ijodiy ko'nikmalar shakllanishi uchun zamin yaratadi. Demak, bu — bo'lajak o'qituvchining muayyan faoliyat turiga iste'dodini shakllantirish jarayonining ikki jihatidir. Shu bois qobiliyatlar psixologiyasi va ijod psixologiyasi o'zaro bog'liqlikning murakkab tizimida ba'zi tarkibiy qismlar yaqqol ajralib turadi. Ular shaxs qobiliyatlari bilan boshqa psixik jihatlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni — masalan, qobiliyatlar va qiziqishlar, qobiliyatlar va moyilliklarni ifodalaydi.

**Аннотация**

В статье рассматриваются некоторые вопросы развития компетентности самосовершенствования будущего учителя начальных классов, включая формирование и развитие составных компонентов данной компетентности. Одной из ключевых задач повышения эффективности обучения является активизация познавательной активности учащихся, связанной с их способностью к самосовершенствованию. В процессе формирования элементов компетентности самосовершенствования формируются мотивы учёбы, что является важной стороной образовательного процесса. Усиление учебной деятельности, связанной с причинами получения образования, и её активное ведение являются одними из основных методов повышения эффективности обучения. Рассматривать вопрос развития математических способностей отдельно от компетентности самосовершенствования невозможно. Развитие данной компетентности служит основой для формирования творческих умений. Таким образом, это два аспекта процесса формирования склонностей будущего учителя к определённому виду деятельности. В цепочке взаимосвязей между психологией способностей и психологией творчества чётко выделяются отдельные элементы, отражающие связь между способностями личности и другими психическими характеристиками, такими как способности и интересы, способности и склонности.

**Abstract**

The article examines certain aspects of the development of self-development competence in future primary school teachers, including the formation and development of its component parts. One of the key tasks in improving the effectiveness of teaching is to enhance students' cognitive activity related to their self-development competence. In the process of forming elements of this competence, students' learning purposes are shaped, which is a significant part of the educational process. Strengthening learning activities related to the reasons for education and maintaining them actively is one of the main methods for increasing educational effectiveness. The issue of developing mathematical abilities cannot be considered separately from self-development competence. The development of this competence serves as a foundation for the formation of creative skills. Thus, these are two sides of the process of shaping a future teacher's talent for a specific type of activity. In the complex chain of interrelations between the psychology of abilities and the psychology of creativity, certain components clearly stand out, expressing the interconnection between a person's abilities and other psychological aspects, such as abilities and interests, abilities and inclinations.

**Kalit soʻzlar:** boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisini oʻz-oʻzini rivojlantirish kompetenti, ilmiy bilish metodlari, boshlangʻich taʼlim oʻqituvchisining umumiy madaniyati.

**Ключевые слова:** компетентность и саморазвитие будущего учителя начальных классов, методы научного познания, общая культура учителя начального образования.

**Key words:** competent self-development of a future primary school teacher, methods of scientific cognition, general culture of a primary school student.

## KIRISH

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi” 60-PFi taʼlim sohasida tub burilishlarni talab etmoqda. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini bilimli qilish, olgan bilimlarni mustahkam boʻlishi uchun boshlangʻich sinf oʻquvchilariga moʻljallangan darsliklar va dasturlarni takomillashtirish zarur. Shuningdek, boshlangʻich sinf oʻqituvchisidan oʻqitishning eng ilgʻor pedagogik texnologiyalari, jumladan muammoli taʼlim, shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim, oʻquvchilarga individual va tabaqalashtirilgan (differensial) yondashuv kabi faol metodlardan toʻlaroq foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Oʻtiladigan mavzularni oʻquvchilarga qiziqarli boʻgan yangi maʼlumotlar bilan boyitish zarur.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

2023-yilda TIMSS (Trends in International mathematics and science study) xalqaro dasturi Respublikamizda oʻtkazilib, unda 4-sinf oʻquvchilarining matematika va tabiiy fanlar boʻyicha savodxonligi, bilimlari sinovdan oʻtkazildi. Bu tekshirish natijalari quvonarli emas. Boshlangʻich 4-sinf oʻquvchilarining koʻrsatgan natijalari tahlili shuni koʻrsatadiki, boshlangʻich sinf oʻquvchilari bilimlari kerakli darajada emas. Bizningcha bunda hamma muammo oʻqitish usullarida. Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga berilayotgan bilimlar, topshiriqlar, jumladan masala va misollar bilan TIMSS dagi topshiriqlardagi farqlarda. Bu kabi qator muammolarni hal qilish yoʻllari B.Abdullayeva, N.Aliyevlar [1]-[8] ishlarida oʻrganilgan.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun moʻljallangan darslarda metodlarni yangilab borish, yangilarini turish-zamon talabidir. Bu sohani rivojlantirishda Oʻzbekistonning taniqli psixolog-pedagog olimlarning ulushlari muhim. Jumladan, J.I.Ikromov, N.R.Gʻaybullayev, A.Artiqboyev, A.Narmanov, B. S.Abdullayeva, N.Urinova kabilar oʻqitishda kasbiy tayyorgarlik va fanlar integratsiyasi asosida oʻquvchilarning bilimlarini rivojlantirish boʻyicha qator muhim ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar. T.R.Toʻlaganov, Y.Gʻ.Maxmudov, B.Mirzaxmedov, X.Omonov, M.Tojiyev, N.Eshpoʻlatovlarning ishlarini ham taʼkidlash lozim. J.I.Ikromov, N.R.Gʻaybullayev, A.Artiqboyev, A.Narmanov, Q.Jumaniyozov va boshqa olimlar boshlangʻich sinf oʻquvchilarning geometrik tafakkurini rivojlantirish boʻyicha metodik yoʻl-yoʻriqlar koʻrsatganlar.

“Motiv maqsadni belgilash bilan birga uni yanada kuchliroq va jadalroq boshqarishga chaqiradi. Bundan taʼlimning ixtiyoriy motivi emas, balki ancha chuqur, kuchli, mazmunan boy boʻlgan taʼlim motivlari kerakligi koʻrinib turibdi.....” degan gʻoya bergan Y.K. Babanskiy [8] ming chandon haqli edi. Boshlangʻich taʼlim oʻquvchilarining matematikani oʻrganishdagi faoliyatiga doir koʻnikmalari aqliy hisoblanadi. Demak, oʻquvchilarda aqliy koʻnikmalar hosil boʻlishi bosqichma-bosqich olib borilishi kerak.

## NATIJALAR

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini rivojlantirish kompetentligining tarkibiy qismlarini shakllantirish quyidagi qismlardan iborat:

— matematik amallarni bajarish jarayonida boshlangʻich sinf oʻquvchilarini rivojlantirish kompetentligini shakllantirish;

— boshlangʻich sinf oʻquvchilarining qoboliatlarini rivojlantirish orqali ularning faollik darajasini oshirish;

— koʻrgazmali qurollar, oʻquv materiallari va slaydlardan foydalanib, boshlangʻich sinf oʻquvchilarining kompetentligini rivojlantirish;

— Muammoli va mantiqiy masalalarini yechish orqali kompetentlikning tarkibiy qismlarini shakllantirish.

Demak, boshlangʻich sinf oʻquvchilarini rivojlantirish kompetentligini shakllantirishda jarayonini ikki tipga ajratish mumkin:

## PEDAGOGIKA

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetentligini rivojlantirish tarkibini ochadigan topshiriqlar;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetentligini rivojlantirish elementlarini shakllantiradigan masalalar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetentligini rivojlantirishda bilishga oid faolligini oshirish o'qitish samaradorligini oshirish hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetentligini rivojlantirish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'rganish motivlari shakllanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini o'stirish boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshiruvchi asosiy metodlardan biridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetentligini rivojlantirish ijodiy ko'nikmalar shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Demak, bular — bo'lajak o'qituvchining muayyan faoliyat turiga iste'dodligini shakllantirish jarayonining ikki tomoni.

Shu bois qobiliyatlar psixologiyasi va ijod psixologiyasi o'zaro bog'lanishining murakkab zanjirida ayrim qismlar ochiq ajraladi, ular boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qobiliyatlari va boshqa psixik tomonlari o'rtasidagi o'zaro aloqa va bir-biriga bog'liqligini, masalan, qobiliyatlar va qiziqish, qobiliyatlar va mayllar hamda boshqalar bilan o'zaro bog'lanishini ifodalaydi.

Faoliyatning juz'iy faktlari bo'lib ko'ringan, chunonchi, masalani muvaffaqiyatli yechish yoki to'garakda yaxshi ma'ruza qilish kabilar asosida faoliyatning muayyan turiga katta qiziqish va barqaror mayllarning rivojlanishini ko'rsatadigan ko'pgina misollar ma'lum.

Fikrlash amallari turlarining yangi funksiyalari bilan birgalikda tasavvurlar yangi xususiyatlarga erishmoqda. Matematik tafakkurda ikki tomon farq qilinadi. Aql sof mantiqiy tuzilishlar asosida muayyan dalillardan zaruriy xulosa qilishga intiladigan vaqtdagi tahliliy tafakkur va aql biror geometrik shaklda u yoki bu fikrni gavdalantirishga intiladigan vaqtdagi geometrik tafakkurga bo'linadi. Shu ma'noda matematik qobiliyat haqida gapirilganidek, obrazli tafakkurda namoyon bo'ladigan geometrik intuitsiya to'g'risida ham fikr yuritish mumkin.

**XULOSA**

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini rivojlantirish kompetentligida harakatning "siljitish" samarasini aniqlaydigan boshqaruvchi holat muhim o'rin tutadi. Shuning uchun o'z-o'zini rivojlantirish kompetentligini shakllantirishdagi asosiy masala har bir harakat tuzilishining joylashishi va bu amallarni kelgusida bosqichma-bosqich shakllantirish hisoblanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini kompetentligini rivojlantirishni shakllantirish o'quv faoliyati aniq intellektual madaniyatining subyektini aks ettirishi lozim.

Harakatni muvaffaqiyatli shakllantirish boshqaruvchi qismda amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchilar harakatni o'zlashtirish bo'yicha yo'l-yo'riqlar va ko'rsatmalar tizimiga ega bo'ladilar. Masalalar yechish jarayonida o'quvchilar o'rganadigan bilimlar darajasiga qarab, harakatning boshqaruvchi qismi har xil xarakterda bo'lishi mumkin. Masalan:

- masala yechishning aniq rejasini;
- o'quv algoritmi;
- ayrim sinflarda masala yechish rejasini evristik tizimda qurish;
- ayrim sinflarda masalani o'quv-algoritmik usulda yechishni qurish.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantiruvchi asosiy vositalar ichida o'z-o'zini rivojlantirish kompetentligi muhim o'rin tutadi. Uning mohiyati shundaki, o'qituvchilar ta'lim jarayonida bilimlarni qo'llashning tadqiqiy metodlari bilan tanishadilar va tadqiqiy metodning sodda elementlarini qo'llay oladilar.

**ADABIYOTLAR**

1. Abdullayeva B., Aliyev N. Pedagogical Ability In Self-Development Of A Future Primary School Teacher // Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 149-153.
2. Abdullayeva B., Aliyev N. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z-o'zini rivojlantirishda pedagogik qobiliyatning ahamiyati // Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 74-78.
3. Abdullayeva B. S., Aliyev N.A. Improving the competence of the future elementary school teacher in self-development. European Journal of Humanities and Educational Advancements, (2022) 3(12), 12-14.
4. Abdullayeva B. S., Aliyev N. A. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish. Educational Research in Universal Sciences, (2023)2(13), 605–609.

5. Aliyev N.A. Formation of self-development skills for future primary teachers. *Scientific Impulse*, (2023). 2(15), 363–367
6. Aliyev N.A. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini o'z-o'zini rivojlantirish kompetentligini takomillashtirish bo'yicha dasturini ishlab chiqish. *journal of new century innovations*, (2024).67(5), 3-6.
7. Aliyev N.A. Developing a program to improve the self-development competence of future primary school teachers. *Web of Teachers: Inderscience Research*, (2025). 3(1), 394–397.
8. Бабанский Ю.К. Оптимизация учебно-воспитательного процесса. — М. Просвещение, 2021. — 192 с.
9. А.К.Юсупова ва бошқалар. Математика ўқитиш методикаси (умумий методика). Чирчиқ. 2020 йил.
10. А.К.Юсупова ва бошқалар. Математика ўқитиш методикаси (хусусий методика). Фарғона. 2023 йил.